
Xususiy maktabda o'quv yiliga yakuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi

Rishton tumanidagi "Al-Farg'oniy" xususiy maktabida yakuniga bag'ishlangan hisobot tadbiri bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda tuman hokimi, tuman kengashi deputatlari, maktab o'quvchilari, pedagog ustozlar, ota-onalar, davlat va jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida maktab o'quvchilari yil davomida egallagan bilimlarini turli chiqish va badiiy ko'rinishlar orqali o'zbek, rus, ingliz va koreys tillarida namoyish etishdi.

O'quv yili yakuni bo'yicha yuqori natijaga erishgan yoshlar, pedagog ustozlar va faol ota-onalar maktab ma'muriyati tomonidan munosib mukofotlandi.

Ta'kidlanishicha, xususiy maktab o'quvchilari nafaqat tuman va viloyat, balki respublika miqyosida ham fan hamda sport yo'nalishlarida salmoqli yutuqlarga erishib kelmoqdalar.

2024-05-24 13:36:06